XALQ DEPUTATLARI YAKKABOG' TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 26 - dekabr VI-46-148-4-68-K/22 Yakkabog‘ tuman hokimligi

Yakkabog’ tumani “Kattabog’ mahalla fuqarolar yig‘ini hududida yangi mahalla fuqarolar yig‘inini tuzish to‘g‘risida

“Kattabog’” mahalla fuqarolar yig‘inining 2022-yil 29-iyuldagi iltimosnomalari, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli qaroriga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tumandagi “Kattabog’” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida yangi mahalla fuqarolar yig‘ini tuzilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi ekspert komissiyasining xulosasiga asosan yangi tuzilayotgan mahallaga “Bog’zor” nomi berilsin.

3. Bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan mahalla fuqarolar yig‘inining:

yer maydoni 1-ilovaga muvofiq;

aholi soni 2-ilovaga muvofiq;

oilalar soni 3-ilovaga muvofiq;

chegaralari 4-ilovaga muvofiq;

“Kattabog’” mahalla fuqarolar yig‘inining o‘zgartirilgan chegara chizmalari 5-ilovaga muvofiq;

4. Tuman hokimi o‘rinbosari (F.Xidirov) tuman Statistika bo‘limi (S.Rasulov), tuman Davlat xizmatlari markazi (B.Sattorov), “Yermulkkadastr” davlat korxonasi tuman filiali (U.Turdiev)ga va tuman qurilish bo‘limi (S.Normaxmatov) hamda boshqa tegishli mutasaddilar bilan birgalikda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarini amalga oshirsin.

5. Tuman hokimi o‘rinbosari (D.Mingboev) tuman Ichki ishlar bo‘limi (D.Umarov), tuman davlat Soliq inspeksiyasi (Sh.Meyliyev), tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (O’.Fayziyev)lar bilan birgalikda:

mazkur qaror bilan yangi tuzilgan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari hududida yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga o‘zgartirish kiritish;

yangidan tuzilgan mahalla fuqarolar yig‘inlariga dumaloq muhr va tamg‘a yasash;

mahalla fuqarolar yig‘inlariga INN raqami ochish uchun ruxsatnoma berish;

mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirish choralarini ko‘rsin.

6. Tuman hokimi o‘rinbosarlari (B.Islomov, D.Mingboev) qurilish bo‘limi (S.Normaxmatov) bilan birgalikda:

yangidan tuzilgan mahalla fuqarolar yig‘inlariga nomi yozilgan ko‘rsatgich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida o‘rnatish;

yangidan tuzilgan mahalla fuqarolar yig‘inlarini ma’muriy bino va kerakli jihozlar bilan ta’minlash vazifasi topshirilsin.

7. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (Sh.Eshmatov) yangi mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil qilinayotganligi munosabati bilan mahalla fuqarolar yig‘ini uchun qo‘shimcha shtat birliklari kiritsin.

8. Tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (S.Axmedov) tuman hokimligi Tashkiliy-nazorat guruhi (I.Xalilov)ga yangi tashkil etilayotgan maxalla fuqarolar yig‘inida

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi

to‘g‘risida”gi Qonunining talablari asosida mahalla hududida, ko‘chalarda vakillar yig‘ilishlari o‘tkazilib, saylov yig‘ilishiga vakillar normasi asosida vakillar saylash, mahalla fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli)ni saylovini o‘tkazish uchun kamida 3 nafardan munosib kadrlar zaxirasini shakllantirib, tuman hokimiga taklif kiritish vazifasi yuklatilsin.

9. Yakkabog’ tuman hokimligi Axborot xizmati (Sh.Xasanov) hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

10. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Yakkabog` tuman hokimi **L.J.ABDULLAYEV**

Xalq deputatlari Yakkabog‘ tuman
Kengashining
2022 yil 26 dekabrdagi
VI-46-148-4-68-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi “Kattabog’” mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida yangi mahalla fuqarolar yig‘inlarining bo’linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o’zini-o’zi boshqarish organlarining er maydonlari

1.	Kattabog’ mahalla fuqarolar yig‘inining umimiy er maydoni (ga)	Kattabog’ mahalla fuqarolar yig‘inining qolgan er maydoni (ga)	Yangi tashkil etilayotgan Bog’zor mahalla fuqarolar yig‘inining er maydoni (ga)
	1135	505.5	625.9

Xalq deputatlari Yakkabog‘ tuman
Kengashining
2022 yil 26 dekabrdagi
VI-46-148-4-68-K/22-son qaroriga
2-ilova

Tumandagi “Kattabog’” mahalla fuqarolar yig‘inining bo’linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o’zini-o’zi boshqarish organining aholi soni

1.	Kattabog’ mahalla fuqarolar yig‘inining umimiy aholi soni (nafar)	Kattabog’ mahalla fuqarolar yig‘inining aholi soni (nafar)	Yangi tashkil etilayotgan Bog’zor mahalla fuqarolar yig‘inining aholi soni (nafar)
	6616	3600	3016

Xalq deputatlari Yakkabog‘ tuman
Kengashining
2022 yil 26 dekabrdagi
VI-46-148-4-68-K/22-son qaroriga
3-ilova

Tumandagi “Kattabog’” mahalla fuqarolar yig‘inining bo’linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o’zini-o’zi boshqarish organining oilalar soni

1.	Kattabog’ mahalla fuqarolar yig‘inining umimiy oilalar soni (nafar)	Kattabog’ mahalla fuqarolar yig‘inining oilalar soni (nafar)	Yangi tashkil etilayotgan Bog’zor mahalla fuqarolar yig‘inining oilalar soni (nafar)
	1449	817	632

Xalq deputatlari Yakkabog‘ tuman
Kengashining
2022 yil 26 dekabrdagi
VI-46-148-4-68-K/22-son qaroriga
4-ilova

Tumandagi “Kattabog’” mahalla fuqarolar yig‘inining bo’linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o’zini-o’zi boshqarish organlarining chegaralari

1.	Kattabog’ mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari	Kattabog’ mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari	Yangi tashkil etilayotgan Bog’zor mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari
	Kattabog‘, Begish, Uvat	Begish, Uvat	Kattabog‘

Xalq deputatlari Yakkabog‘ tuman Kengashining
2022 yil 26 dekabrdagi
VI-46-148-4-68-K/22-son qaroriga
5-ilova

Tumandagi “Kattabog’” mahalla fuqarolar yig‘inining bo’linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o’zini-o’zi boshqarish organining o‘zgartirilgan chegara chizmalari


Янги ташкил этилаётган Боғзор МФЙ
Каттабоғ МФЙ